

## KICHIK YOSHDAGI BOLALAR HAMDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI UCHUN CHET TILINI, O'RGAATISH METODLARI VA USLUBLARI

Xoliqulova Mahliyo G'oyimnazar qizi

Guliston davlat pedagogika institute “Xorijiy til va adabiyoti” fakulteti

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada kichik yoshdagi bolalarga hamda boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini osson va qulay o'rnatish uslublari hamda hozirgi kunda foydalanilayotgan zamonaviy metodlar to'g'risida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** metodlar, mактабгача та'lим, axborot, zamonaviy, ko'rgazmali qurollar, muloqot

Bugungi kunda chet tilini o'rganish uchun judayam katta imkoniyatlar yaratilgan. Ayniqsa mustaqillikka erishganimizdan keyin bu imkoniyatlar yanayam ko'paydi. Yurtimizning kelajagi bo'lган yosh avlodni tarbiyalash va ularga sifatli bilimlarni berish oldimizdag'i eng katta maqsadlarimizdan biri hisoblanadi. Prezidentimiz ham bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalariga katta e'tibor qaratmoqda. Shuning uchun bog'cha yoshidagi bolalar va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun chet tilini o'qitishni samarali va osson metodlari ishlab chiqilmoqda. Bugungi kundagi bolalar judayam qiziquvchan shuning uchun ularga chet tillarini o'rnatish uchun turli xil o'yinlardan yoki multfilmlardan, rangli rasmlardan foydalanish kerak bo'ladi. Kichik yoshdagi bolalarning miyyasida hamma narsa rasmi ko'rinishida namoyon bo'ladi shu sababli ularga ko'proq rasmlar va ko'rgazmali qurollar asosida o'rnatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Hozirgi yashab turgan davrimizda chet tilini o'rganish nafaqat yoshlar uchun balki katta yoshdagilar uchun ham kerak hisoblanadi. Chunki iqtisodni va boshqa sohalarni rivojlantirish uchun ham chet tilini bilish kerak. Kichik yoshdagi barcha bolalar uchun chet tilini o'rnatish anchagina mas'uliyatli va murakkab vazifa hisoblanadi. Ammo ularga osson o'rnatish uslublari ham bor. Bunday yoshdagi bolalarga ko'proq o'yin shaklida darslar o'tilishi kerak ulardan bir nechtasini sanab o'tamiz.

-Bunday yoshdagi bolalarga ingliz tilidagi videoroliklar yoki multfilmlarni qo'yib berish kerak. Bolalar multfilmni so'zlarini tushunmasliklari mumkin ammo ular bosh qahramonlarning ismlarini va ular foydalanayotgan so'zlarni eslarida saqlab qolishlari mumkin.

-Yana bir usul bor bu bolalar uchun qiziqarli bo'lishi mumkin. Chet tilidagi so'zlarni yodlatish uchun ularga meva va sabzavotlarni tatib ko'rgizish yoki hidlatib ko'rsatish. Bu jarayonda o'qituvchi o'sha narsani belgilarini ingliz tilida aytib yordam berishlari mumkin hisoblanadi. Misol uchun bananni olsak uning rangini sariq(yellow), tamini (tasty) va shaklini aytishlari mumkin.

Agar bolalar 3 yoshdan boshlab chet tillarini o'rgansa bu ular uchun eng yaxshi vaqt hisoblanadi. Chunki bu yoshdagi bolalarning xotirasi hamda nutqi boshqalardan ajralib turadi. Shuning bilan birga ular o'rgangan va eshitgan narsasini tezda ilg'ab olishadi. Buning uchun yana bir usuldan foydalansa bo'ladi. Oddiy kundalik sharoitimizda har kungi qiladigan muloqotmizni ingliz tilida olib borsak bo'ladi bu bolalar uchun foydali bo'ladi. Agar har kuni ingliz tilidagi so'zlarni eshitayversa uning xotirasida yod bo'lib qoladi. Lekin bu usulni ko'proq kattaroq yoshdagi bolalar uchun ishlatsa ancha samaraliroq bo'lishi mumkin chunki kichik yoshdagi bolalar har kuni ingliz tilini eshitayversa ularda tilni o'rganishga bo'lgan qiziqish yo'qolishi mumkin. Ularga chet tilini o'rgatishni samarali yo'li bu o'yin orqali chunki bu yoshdagi bolalarda ko'proq o'yin faoliyati ustunlik qiladi va taqlid qilish ham ancha rivojlangan bo'ladi. Imo ishoralar orqali o'rgatish ham juda foydali hisoblanadi. Bundan tashqari o'qitishning samaradorligini oshirish uchun multimedialardan ham foydalanish kerak. Multimediadan foydalanib o'rgatilsa bu katta samara beradi. Bu bolani qiziqishini yanayam oshiradi va uni o'rganilayotgan narsaga e'tiborini qaratadi. Misol uchun agar biz "animals" ya'nii hayvonlar haqidagi mavzuni o'tayotgan bo'lsak bolalarga o'sha hayvonlarning tovushlarini chiqarib ko'rsatish kerak shunda ular o'sha hayvonlarni bear, rabbit, tiger deb ossongina topib olishadi. Bilmaganlar esa boshqa bolalardan eshitganini eslarida saqlab qola oladi. Kichik yoshdagi bolalar uchun hamma metod va uslublardan foydalanib bo'lmaydi. Ularga maquli va samarali hamda o'rganishga osson bo'lishi kerak. Kichik yoshdagi bolalarning miyyasi ko'p axborotni qabul qilolmaydi ularga soda va yengilroq bo'lgan uslublardan foydalanish kerak.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki bo'g'cha yoshidagi bolalar va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bugungi kunda chet tilini o'rganishlari uchun barcha shart sharoitlar bor lekin ularga o'rgatayotgan tarbiyachilari yoki o'qituvchilari ularga mos bo'lgan metodlardan va uslublardan foydalanishi kerak.

## Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Ilimiy rahbar:Yuldasheva.F.F OzDJTU katta o'qituvchisi,Muallif:Sattorova.G.F OzDJTU 2-kurs talabasi
2. Hilola Jumaniyozova, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi
- 3.<https://blog.xabar.uz/post/maktabgacha-ta-lim-jarayonida-xorijiy-tillarni-o-qitishning-zamo>